



LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA “TIL - MADANIYAT - INSON” UCHLIGINING O‘ZARO MUNOSABATI.

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslikda “Til – madaniyat – inson” uchligining nazariy mohiyati olimlar qarashlarini izohlagan holda tahlil qilinadi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan til, madaniyat va inson o‘zaro bog‘liq yaxlit tizimni tashkil etadi. Bu tizimda til madaniyatni ifodalovchi vosita, madaniyat esa tilda aks etuvchi ma’naviy qadriyatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Inson esa mazkur jarayonning faol subyekti hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, til – madaniyat – inson, lisoniy shaxs, milliy mentalitet, ta’sir*

Inson — til va madaniyatning markaziy subyekti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslikda inson til orqali madaniyatni yaratadi, o‘zlashtiradi va ifodalaydigan asosiy subyekt hisoblanadi. Shu bois mazkur yo‘nalishda inson omili birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Antropotsentrik yondashuvga ko‘ra, inson til va madaniyat tizimining markazida turadi. Inson til orqali dunyoni anglaydi, tafakkur qiladi va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu ma’noda til inson faoliyatining mahsuli sifatida qaraladi.

Yu.S. Stepanov inson va til munosabati haqida shunday deydi: «Til insonda va inson uchun mavjud; insondan tashqarida til o‘z mohiyatini yo‘qotadi⁷».

Ushbu qarashga ko‘ra, til inson ongi, tafakkuri hamda ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi.

Lingvomadaniyatshunoslikda “Til – madaniyat – inson” uchligining nazariy mohiyati juda katta hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan til, madaniyat va inson o‘zaro bog‘liq yaxlit tizimni tashkil etadi. Bu tizimda til madaniyatni ifodalovchi vosita, madaniyat esa tilda aks etuvchi ma’naviy qadriyatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson esa mazkur jarayonning faol subyekti hisoblanadi.

V.V. Vorobyovning ta’kidlashicha: «Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyat fenomeni sifatida, madaniyatni esa lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omil sifatida o‘rganadi».⁸

“Til – madaniyat – inson” munosabatini amaliy jihatdan ifodalovchi asosiy kategoriyalardan biri — lisoniy shaxs tushunchasidir. Lisoniy shaxs muayyan til va madaniy muhitda shakllangan insonning nutqiy, kognitiv va aksiologik xususiyatlarini qamrab oladi.

⁷ Степанов Ю.С. *Константы. Словарь русской культуры.* — М., 1997.

⁸ Воробьев В.В. *Лингвокультурология.* — Москва: РУДН, 1997.

G.I. Bogin esa lisoniy shaxsni quyidagicha ta'riflaydi: «Lisoniy shaxs — matn yaratish va uni idrok etish qobiliyati nuqtai nazaridan qaraladigan insondir»⁹.

Ushbu ta'rif insonning til orqali madaniy ma'nolarni ifodalash va anglash qobiliyatini ifodalaydi. Bu qarash antropotsentrik yondashuvning asosini tashkil qiladi va tilni inson ongi, tafakkuri hamda madaniy xotirasi bilan uzviy bog'laydi.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan til, madaniyat va inson o'zaro dialektik bog'langan tizimni tashkil etadi: 1) Til — madaniyatni ifodalovchi va saqlovchi vosita; 2) Madaniyat — tilda o'z aksini topuvchi ma'naviy qadriyatlar majmuasi; 3) Inson — til orqali madaniyatni yaratuvchi va o'zlashtiruvchi shaxs.

Demak, til madaniyat ta'sirida shakllanadi, madaniyat esa insonning til orqaligi faoliyati natijasidir. lingvomadaniyatshunoslikda “til – madaniyat – inson” munosabati yaxlit va o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin etildi. Til madaniyatni aks ettiradi va saqlaydi, madaniyat inson tafakkurini shakllantiradi, inson esa til orqali madaniyatni yaratadi va rivojlantiradi. Mazkur uchlikni chuqur o'rganish xalqning milliy dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasini anglashga xizmat qiladi.

Biroq mazkur tadqiqot doirasida biz oppozitsiya nuqtayi nazarini emas, balki E. Benvenist qarashlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Uning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik «til, madaniyat va inson shaxsiyati triadasi asosida» vujudga kelgani bois, u tadqiqotchiga «etnosning moddiy va ma'naviy o'ziga xosligini ko'rish imkonini beruvchi linza» vazifasini bajaradi¹⁰.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati spetsifik muammolarining lingvokulturologiya tomonidan yechilishi ikki yo'nalishda amalga oshishi mumkin. Bir tomondan, lingvokulturologiya madaniy faktorning tilga ta'siri (kulturologik lingvistika muammolari), boshqa tomondan, til faktorining madaniyatga ta'siri (lingvistik kulturologiya muammolari)ni o'rganadi. Shunga qaramay, lingvokulturologiyaning ob'ekti, ularning bir-biriga munosabatida, til va madaniyatdan iborat bo'lishi lozim. Tadqiqot ob'ektining yaxlitligi xaqidagi bunday tasavvur muammolar kompleksini yagona ilmiy-nazariy yondashuv asosida yechish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика. — М. : Прогресс, 1974. — 448 с. — С. 45.
2. Богин Г. И. Модель языковой личности. — Калинин, 1984. — 245 с.
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология. — М. : РУДН, 1997. — 336 с.
4. Воркачев С. Г. Российская лингвокультурная концептология: современное состояние, проблемы, вектор развития // Известия РАН. Серия литературы и языка. — 2011. — Т. 70. — № 5. — С. 64–74.

⁹ Богин Г.И. Модель языковой личности. — Калинин, 1984.

¹⁰ Ўша асар, -С.45.

5. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. — М. : Языки русской культуры, 1997. — 824 с.

6. Юсупова Л. Г., Ахметзадина З. Р. Лингвокультурологический анализ концепта “fear” / «страх» / «куркыу» в английском, русском и башкирском языках (на материале художественных текстов) // Вестник Башкирского университета. — 2018. — Т. 23. — № 2. — С. 488–492.

7. Ахметзадина З. Р. Язык в пространстве культуры // Башкортостан — территория роста: предпринимательство, экология, язык и культура (проблемы, поиски, перспективы) : сб. материалов Всерос. науч.-практ. конф. с междунар. участием (Республика Башкортостан, г. Сибай, 16–17 марта 2017 г.). — Сибай : Сибайская городская типография — филиал ГУП РБ, изд. дом «Республика Башкортостан», 2017. — С. 64.

¹¹ Л. Г. Юсупова, З. Р. Ахметзадина. Лингвокультурологический анализ концепта “fear” / «страх» “куркыу” в английском, русском и башкирском языках (на материале художественных текстов). Вестник Башкирского университета. 2018. Т. 23. №2, -С.488-492. Ахметзадина З. Р. Язык в пространстве культуры / Башкортостан - территория роста: предпринимательство, экология, язык и культура (проблемы, поиски, перспективы): сб. мат-лов Всероссийской научно-практ. конф. (с международным участием), Республика Башкортостан, г. Сибай, 16-17 марта 2017 г. Сибай: Сибайская городская типография - филиал ГУП РБ: изд. дом «Республика Башкортостан», 2017 С. 64.

¹² Воркачев С. Г. Российская лингвокультурная концептология: современное состояние, проблемы, вектор развития // Известия РАН. Сер. литературы и языка. 2011. Т. 70. №5. С. 64-74.

¹³ Бенвенист Э. Общая лингвистика. М., 1974. -С. 45.